

**Jahon adabiyoti namunalari hozirgi Òzbek tarjimalarida.**

*Ingliz tili o'qitishning chet tillar*

*i integrallashgan kurs kafedrası o'qituvchisi*

***Shamsutdinova Diyora Yorqinbek qizi ustozim***

*Andijon Davlat Chet tillari instituti,*

*Ingliz tili amaliyoti, 4-bosqich 427-guruh talabas*

***i Tursunova Diyora Komiljon qizi***

*Student of the "Foreign Language and Literature and Languages"*

*Faculty of Andijan State Institute of Foreign Languages*

***Ergasheva Gulirano***

***Anontatsiya;*** *Bugun yoshlarimiz butun jahon adabiyotini o'z ona tillarida tushunib, o'qiy oladi. Bu tezisdá O'zbekistonda tarjimashunoslik fani qanchalik rivojlanganligini aniqlashimiz mumkin.*

***Annotation;*** *Today, our youth can understand and read the entire world literature in their native languages. In this thesis, we can determine how highly developed the science of translation studies is in Uzbekistan.*

***Аннотация;*** *Сегодня наша молодежь может понимать и читать всю мировую литературу на родном языке. В данной диссертации мы можем определить, насколько высоко развито переводоведение в Узбекистане.*

***Kalit so'zlar;*** *Tarjima, Jahon adabiyoti kutubxonasi, Jahon madaniyat, "Behuda shov-shuv", Hermann Hesse, Tarjima san'ati.*

Jahon adabiyotining o'zaro boyitish yo'nalishidagi taraqqiyoti ma'lum bir davrda tarjima orqali shakllandi va bu ko'plab xalqlar orasida insoniyat madaniyatining keng tarqalishiga olib keldi. Shu tariqa dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, ijodkorlar o'rtasidagi adabiy aloqalar poydevori qo'yildi.

— Dunyo xalqlari adabiyotining eng sara namunalarini tilimizga tarjima qilish har doim tahsinga sazovor vazifa sifatida qadrlanib, badiiy tarjima imkoniyatlaridan bizning davrimizga qadar keng foydalanilib kelinayotganini ham qayd etish lozim. uzoq vaqt davomida jahon adabiyoti, xususan, Yevropa klassikasi rus tilidan tarjima qilingan bo'lsa, hozirda umuman olganda madaniy yuksalishimizni ko'rsatuvchi omillardan biri shundaki, bizda Yevropa va boshqa qator xalqlarning eng yaxshi ilmiy va adabiy asarlarini tarjima qiluvchi mutaxassislar bor. Bulardan eng taniqli tarjimonshunos Nizom Komil juda ko'p jahon adabiyoti asarlarni tarjima qilgan. Ulardan G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" [roman] (Erix Mariya Remark), „Yangi asr avlodi“ nashriyoti „Uch og'ayni“ [roman] (Erix Mariya Remark), „Yangi asr avlodi“ nashriyoti „Hellados“ [hikoya] (Nodar Dumbadze) „Ko'mamak“ [hikoya] (Nodar Dumbadze) „Oq bayroqlar“ [roman] (Nodar Dumbadze) „Abadiyat qonuni“ [roman] (Nodar Dumbadze) „Kukaracha“ [qissa] (Nodar Dumbadze) „Tungi darbon“ [roman] (Irvin Shou) „Qo'shyurak“ [hikoya] (Fozil Iskandar) „Akam“ [hikoya] (Sergey Dovlatov) „Atirgulning tikoni“ [hikoya] (Gabriel Garsia Markes) „Bir umrning zavoli“ [hikoya] (Stefan Sveyg). Yanglish Egamova Tarjima nazariyasi va til ilmiga oid bir qancha ilmiy maqolalar muallifi. Nemis allomasi Iogan Volfgang Gyote asarlari tarjimasi bilan mashhur. Ular o'z tarjimalarini sof ozarbayjon adabiy tilida, o'z ona tilining badiiy vositalari va go'zalligidan kelib chiqib, mahorat bilan amalga oshiradilar. originalning badiiy go'zalligini eshitib, badiiy tasvirlarni tarjima qiling. Bunday tarjimalar milliy adabiyotimizni boyitadi.

Bugun mamlakatimizda jahon adabiyotining eng sara namunalari davlat miqyosida tilimizga tarjima qilinib, kitobxonlarimizga jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkonini bermoqda. Xususan Òzbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida qonuni va Prezidentimizni farmonlari.

Mamlakatimizda adabiyot va san'atning tez suratlar bilan ravnaq topishi jumladan tarjimon va tarjimonshunoslar oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Qardosh xalqlar adabiyotining

gullab-yashnashi munosabati bilan badiiy soʻz ustalarining eng yaxshi asarlaridan kitobxonni bahramand qilish ehtiyoji oshib bormoqda. Katta tarjimachilik dargohida yuksak tarjima mahorati namunalari yaratildi. Vilyam Shekspir, Jyul Vern, Jorj Sminson Agata Kristi, Onore de Balzak, Mark Tven, Ernst Hemminguey, Platon, Gomer, Aristotel, Sofokl kabi adib va olimlarning asarlari juda koʻplab tarjima qilingan. Shu jumladan bu qalam sohiblarining asarlari madaniy dunyoning qariyb barcha taraqqiy etgan adabiy tillariga tarjima qilingan. Xilma-xil uslublari koʻp janrlari va turlicha adabiy anʼanalar asosida jahon tarjima maktabi barpo etilmoqda. Tarjima ishining nechogʻlik keng koʻlamda qoʻyilganligini oʻzbek tilidan chet tiliga, chet tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan kitoblar soni yildan yilga ortib borayotganidan ham bilib olish mumkin. Oʻzbek tilidan nemis tiliga bir qancha asarlar tarjima qilingan.

Tarjima - murakkab sanʼatdir. Uning xususiyati toʻgʻrisida koʻpgina ziddiyatli fikrlar tugʻilib keldi. Mutlaqo amaliy yondashilganda ham ishning murakkabligi koʻrinib turardi. Teatr ham kino ham tarjimasiz rivojlana olmaydi. Tarjimaning har bir janri, turi oʻz tarjima muammolariga ega. Bularning barchasini asta-sekin yechib murakkab universal sohani baholi qudrat olgʻa siljitayotgan zahmatkash tarjimonlarimiz katta gʻoyaviy vazifani ado etishmoqda. Tarjimonlarning hozirgi avlodi respublikada professional badiiy tarjima sanʼatiga asos soldi. Bizda jahon adabiyotining va chet el klassikasining ajoyib namunalari tarjima qilingan. U xalqning maʼnaviy madaniyatiga badiiy rivojiga rivoj qoʻshadi. Poeziyamizda falsafiy kategoriyalar, mangulik, vijdon va insoniy burch singari adabiy motivlar kechar ekan bunda "Faust" va "Ilohiy komediya" singari yuksak poetik asarlarning yaxshi tarjimalariga erishildi. Tarjima jahonda tinchlikni barqaror etish uchun kurash gʻoyalarini tashviqot qiluvchi taʼsirchan omil boʻlib qolmoqda. Badiiy tarjima sanʼati, ahamiyati va uning yutuqlarini keng targʻib qilishda K.Yashin, V.Zohidov, I.Sultonov, A.Muxtor, L.Qayumov, J.Sharipov, A.Qayumovlarning xizmatlari katta.

O`zbek tilidan nemis tiliga A.Qodiriyning " O`tgan kunlar" romani tarjima qilindi. Bu roman realiyalarga boy va ularning ko`pi nemis tilida birinchi bor berilgan. Tarjimada bu realiyalarni berish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Tarjimaning maqsadi: asl nusxa tilini bilmagan kitobxon yoki tinglovchini o`sha asar matni bilan iloji boricha to`la mukammal tanishtirish. Tarjimachilik ishining bu qadar keng ko`lamda qo`yilganiga sabab shuki: Tarjima - do`stlik ilmidir. Tarjima uzoqni yaqin qiladi. Tarjima o`zgani birodar, tanishni qadrdon, do`stidir.

Dunyoning har bir burchagida yaralgan va yaratilayotgan o`lmas, buyuk asarlar bilan jahon adabiyotini sahifalarni boyitish bugungi davr adabiyotchilari oldida turgan dolzarb masalalaridan biridir. Fikrimizning dalili sifatida bugungi kundagi tarjimalar, xususan nemis tilidan o`zbek tiliga o`zbek tilidan nemis tiliga qilinayotgan tarjimalar talaygina ekanligini aytib o`tmoqchimiz. Bu borada Ozod Sharafiddinov, Ya.Egamova, M.Akbarov, Oybek Ostonov kabi yozuvchi-shoirlarning tarjimalar tahsinga loyiqdir. O`zbek kitobxonlari nemis yozuvchilaridan bo`lgan Nobel mukofoti sohibi Hermann Hessening "Jahon adabiyoti kutubxonasi" asarini O.Sharafiddinov.

Ijodning turlari ko`p. Tarjima ana shu turlar ichida eng dolzarbliigi bilan ajralib turadi. "Eng" deb urg`u berayotganimning sababi shundaki, tarjimasiz biron-bir madaniyat o`z-o`zidan taraqqiy topmagan va topmaydi ham.

Tarjimonlar safida yosh ijodkorlarning nomlarini ko`rib, tarjimada sifat o`zgarishlari ro`y berayotganiga shohid bo`lamiz.

Dramaturgiya ruknida V.Shekspirning "Behuda shov-shuv" (tarjimon – M.Ismoilij) va ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovidning "Shayx San'on" (asliyatdan U.Qo`chqor tarjimasini) asari mahorat bilan o`girilgan.

Adabiyotshunoslik, Falsafa ruknlarida naqd 52 muallif qalamiga mansub lavha, ocherk va maqolalar turli tillardan tarjima qilingan yoki adabiy munozaralar va suhbatlar tarzida o`quvchi e`tiboriga havola etilgan. 2012 yilda

jurnalda 140 dan ortiq muallif ishtirok etgani bu jurnal eng ommabop nashrga aylanganidan darak beradi.

“Publitsistika” va “Jahon madaniyati va san’ati” ruknlarida ham o‘quvchilarning ong va didiga mos lavha va maqolalar e’lon qilinishi ayni muddao bo‘ldi.

Ijodning turlari ko‘p. Tarjima ana shu turlar ichida eng dolzarbligi bilan ajralib turadi. “Eng” deb urg‘u berayotganimning sababi shundaki, tarjimasiz biron-bir madaniyat o‘z-o‘zidan taraqqiy topmagan va topmaydi ham.

O‘zbek adabiyotining eng olis tarixidan to hozirgi kunga do‘vur yuz bergan taraqqiyotga nazar solsak, bu yana-da yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, Muhammad Rizo Ogahiyning olaylik, uning ijodining yarmidan ko‘prog‘ini tarjimalar tashkil etadi. Ogahiy – buyuk so‘z ustasi. Bu uning, xususan, tarjimalarida yaqqolroq ko‘rinadi. Ammo bugungi yosh avlod uning tarjimalaridan to‘liq bahra oladilar, nozik kinoya va qochirimlarini butun nazokati bilan his etadilar, deb dangal ayta olmaymiz. Sababi ma’lum: Ogahiy o‘zi yashagan davrdagi o‘quvchilari uchun ular yaxshi tushunadigan tilga tarjima qilgan va buni a’lo darajada uddalagan. Shundan kelib chiqib, bugungi kundagi tarjima o‘quvchilarining daraja va qiziqishlarini o‘rganish alohida hushyorlikni talab qiladi. Xo‘sh, zahmatkash tarjimonlarimiz o‘z oldilaridagi bu mas’uliyatli vazifani qanchalik ado etmoqdalar? Keksa avlod tarjimonlari uzatgan qalamlarini olishga yosh avlod tarjimonlari tayyor turishibdimi? “Teskari tarjima”, ya’ni o‘zbek tilidan o‘zga tillarga tarjima qilish ko‘ngildagidek bormoqdami? Albatta, bu va bundan boshqa ko‘plab savollar faqat ezgulikni, yaxshi niyatni ifoda etish uchun berilayotganini barchamiz anglab turibmiz. Jahonda mamlakatlar ko‘p, adabiyotlar ko‘p. Shunga yarasha ularning durdona asarlari ham bo‘lishi, tabiiy. Ana shunday durdona asarlarni o‘zbek o‘quvchilariga taqdim etishda sevimli jurnalimiz “Jahon adabiyoti”ning xizmati tahsinga sazovor.

O‘tgan yili nasr ruknida qator romanlar tarjimasi beriladi. Turkmaniston yozuvchisi Otajon Tog‘onning “Begona” (tarjimonlar – M. Ahmad va

M.Safarov), polyak yozuvchisi Boleslav Prusning “Fir’avn” (tarjimon – A. Komil), ingliz yozuvchisi Xaggardning “Kleopatra” (tarjimon – A.Fayzullo va M.Mahmudov), rus yozuvchisi Viktor Astafevning “G’amgin sarguzasht” (tarjimon – J.Fozil), Yovdat Ilyosovning “Olachipor ajal” (tarjimon – Sh.Mansurov), amerikalik yozuvchi Irving Stounning “Hayotga tashnalik” (tarjimon – R. Jabborov, M.Norova), italyan yozuvchisi Gustav Emerning “Sohib changal” (tarjimon – E.Nosirov), gretsiyalik yozuvchi Yannis Marisning “Nafaqadagi xususiy izquvar” (tarjimon – Q.Mirmuhammedov) romanlari o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Bir yilda hammasi bo‘lib 8 (!) ta roman o‘zbek tiliga o‘girilgan. “She’riyat mintaqalari” rukni ham g‘oyat rang-barangligi bilan diqqatni tortadi. Ko‘plab she’riy asarlar bevosita asliyatdan o‘girilgani kishini quvontirmay qolmaydi. Turk, ozarbayjon, hind, ingliz, nemis, tatar tillaridan qilingan tarjimalarda asliyat tilining jozibasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarjimonlar safida yosh ijodkorlarning nomlarini ko‘rib, tarjimada sifat o‘zgarishlari ro‘y berayotganiga shohid bo‘lamiz.

Adabiyotshunoslik, Falsafa ruknlarida naqd 52 muallif qalamiga mansub lavha, ocherk va maqolalar turli tillardan tarjima qilingan yoki adabiy munozaralar va suhbatlar tarzida o‘quvchi e’tiboriga havola etilgan. 2012 yilda jurnalda 140 dan ortiq muallif ishtirok etgani bu jurnal eng ommabop nashrga aylanganidan darak beradi.

Ammo son va sifat degan mezonlar mavjudligini ham esdan chiqarmaslik kerak. “Jahon adabiyoti” jurnali misolida ko‘plab tarjima asarlarini sanab o‘tdim. Ularning tarjima sifati qanday, deb so‘raydigan bo‘lsangiz, bunga darhol “a’lo” yoki “yaxshi” deb javob berolmagan bo‘lardim. Yoshlarni qo‘yib turaylik, ular hozircha izlanishda, o‘shishda. Ular yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklar aksar hollarda tajribasizlik tufayli sodir bo‘ladi, buni kechirsa bo‘ladi. Tahririyatimizga qo‘lyozmalar ko‘plab kelib tushadi. Qoidaga binoan ularning sifatini tezda aniqlab, muallifga “ha” yoki “yo‘q” degan javobni aytishimiz lozim. Goho shunday tarjimonlar uchraydiki, tarjimasini kompyuterdan chiqargandan keyin loaqal ustidan birrov ko‘z

yugurtirmagan bo‘ladi. Shu o‘rinda atoqli adib Mirzakalon Ismoilovning bir ishlari g‘oyat ibratli, deb o‘ylayman. O‘zlarining aytishlaricha, Lev Tolstoyning “Tirilish” romanini ancha yosh paytlarida tarjima qilib, chop ettirgan ekanlar. Yoshlari ulg‘ayganda haligi tarjimani bashqatdan o‘qib ko‘ribdilar va o‘zlaridan qattiq uyalib ketibdilar. Baribir, tajribasizlik o‘z ishini qilgan ekan-da. Shundan keyin bu romanni takroran tarjima qilib, xijolatdan qutilgan ekanlar.

Tarjima matni soyama-soya ko‘chirib chiqish emasligini yoshu keksa, barcha tarjimonlar yaxshi bilishlari kerak. Tarjima halol ijod qilishni, halol ter to‘kishni yoqtiradi, talab etadi. Shoir Tohir Qahhor aytganidek, tarjimonda ham yozuvchilikdan, ham shoirlikdan ozgina ulush bo‘lishi shart, aks holda, undan yaxshi tarjimon chiqmaydi. Endilikda adabiyotimizning eng mo‘tabar, oqsoqol darajasiga yetishgan olim va tarjimoni Ibrohim G‘ofurovni kamoli ehtirom ila barchaga o‘rnak qilib ko‘rsatgim keladi. Kuni-kecha afsonaviy Jeyms Joysning “Ulissning sarguzashtlari”ni o‘zbek tilida biyron-biyron qilib sayratgan edilar, bugunda esa Fyodor Dostoevskiyning “Iblislar” romanini afsonadan haqiqatga do‘narib turibdilar. Men bu yerda Dostoevskiyning dahosiyu tarjimonning jasorati haqida gapirmoqchi emasman, hamma gap shundaki, Ibrohim G‘ofurov shunday og‘ir, murakkab va yirik asarning biron-bir satri yoki kalimasiga “xiyonat” qilmay, o‘zbek tilida ularning aynan muqobilini topolganlar. Tarjimalari ravon o‘qilishining o‘ziyoq hammasini ro‘y-rost aytib turibdi – tarjimon o‘z ishiga ham, asliyatga ham halol yondashgan.

Respublikamizda G‘arb va Sharq tillarini o‘rganish ommaviy tus olgan, desak yang-lishmaymiz. Biron-bir chet tilini bilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Tarjimalarning turi ko‘pligini hamma biladi: so‘zma-so‘z (taglama) tarjima, badiiy tarjima, sinxron tarjima va h.k. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, har qanday adabiyot taraqqiyotini tarjimasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Matbuotda tagiga “falon tildan falonchi tarjimasi” deb imzo chekilgan tarjima uning egasi ko‘ziga cho‘g‘day ko‘rinishi tayin. Ammo sifati-chi? Xuddi o‘sha

“sifat” degan narsa keyinchalik yosh va yoshi kattaroq tarjimonlarga pand bermoqda. Asliyat tilini puxta egallash boshqa, undan ona tilida foydalanish boshqa. Ona tilini barcha fazilatlari bilan yaxshi bilmagan odam har qancha urinmasin, yaxshi tarjimon bo‘lishi qiyin. Ona tilini o‘rganing va yaxshi tarjimon bo‘ling! Tilagimiz – shu.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

. J.Tulenov, Z.G'ofurov. Falsafa. T.: «O'qituvchi». 1997-y.

. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. PMagogika. «O'qituvchi». 2008-y.

IS. P.A.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: «Fam», 2007.

. J.Yo'ldoshev va F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. Interfaol ta'lim sifat kafolati. T., 2009

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) .

[Www.uz](http://Www.uz) O‘zbekiston Respublikasi "Tajimonshunoslik" .